

аниқланди. Бу эса бузоқлар организмида бир ойлигидан бошлаб, қолган барча гуруҳларида бир хилдаги табиий фаол иммунитет шакланганлигидан далолат беради.

Бузоқлар учун табиий иммун жавоб реакцияларининг ўзига хос хусусияти яна шундаки, турли ёшдаги бузоқларда шартли патоген микроорганизмларга қарши антителолар титри 1:50 дан пасаймаслиги аниқланди.

Пастрелла, стафилококк ва стерептококкларга қарши антителолар титрининг тебраниши ҳатто ўртача статистик параметрлар чегарасидан чиқмайди, сальмонелла ҳамда псевдомонадаларга қарши антителолар титри эса барча ёшдаги бузоқларда турғун ҳолда юқори даражада эканлиги қайд этилди.

**Хулосалар.** Ўтказилган тадқиқотларимиз натижалари асосида қўйидагиларни хулоса қиламиз:

1. Бузоқларнинг қон зардобидида шартли патоген микроорганизмларга нисбатан 1:100 дан 1:400 гача бўлган юқори титрдаги антителолар ҳосил бўлиши аниқланди.

2. Бу эса бузоқлар организмида шартли патоген микроорганизмларга нисбатан аввало колострал, сўнгра табиий фаол иммунитет шакланганлигидан далолат беради.

3. Ушбу иммунитетларни тавсифловчи бузоқларнинг қон зардобидидаги антителолар титри тўлқинсимон динамикага эга ва бу ҳолат уларнинг бутун ҳаёти давомида сақланиб қолади.

4. Бу табиий танланиш жараёнида мазкур тур индивидларини микробиал муҳитнинг антиген таъсирига нисбатан кучли иммун реакциялар ҳосил қилаолганлиги сабабли, уларда кучсиз иммун реактивликка эга бўлган индивидларнинг йўқлигидан далолат беради.

## **TOSHKENT VILOYATI SHAROITIDA QO'YLARNING JIGAR VA OSHQOZON-ICHAK TREMATODOZLARINING TARQALISHI**

**S.Erimov – magistrant, X.E.Otabaev - mustaqil izlanuvchi,  
B.S.Salimov - ilmiy rahbar, professor**

**Annotatsiya:** Maqolada Toshkent viloyatining ayrim tumanlarida asraladigan qo'ylarni jigar va oshqozon-ichak trematodalari bilan zararlanish darajasi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** *paramfistomatoz, fassiolyoz, dikroselioz, euritrematoz, xasstileziyoz, kalikoforoz, Dicrocoelium lanceatum, F. hepatica.*

**Mavzuning dolzarbligi:** Qo'ylarning oshqozon–ichak trematodozlariga Trematoda Rudolphi, 1808 sinfining Paramphistomata (Szidat, 1936) Skrjabin et Schulz, 1937 kenja otriyatiga kiruvchi Paramphistomatidae Fiscoeder, 1901 va Gastrothylacidae Stiles et Goldberger, 1910 oilalariga mansub Paramphistomum Fiscoeder, 1901, Liorchis Velichko, 1966, Calicophoron Nasmark, 1937 va Gastrothylax Poirier avlodlarining O'zbekiston sharoitida aniqlangan quyidagi turlari kiradi: Paramphistomum ichikawai Fukii, 1922, Liorchis scotiae (Willmott, 1950), Calicophoron Calocophorum (Fiscoeder, 1901), Gastrothylax crumenifer (Creplin, 1847),. Qo'ylarda ular orasidan juda kam holatda va juda kam miqdorda C. calicophorum, L. scotiae, C. erschowi larning uchrashi aniqlangan. Ushbu trematodalardan tashqari qo'ylarda Hasstilesia ovis Orloff, Erschow et Badanin, 1934 trematodasini ham uchrashi qayd qilingan. Ushbu parazit Trematoda sinfining Brachylaemidae Stiles et Hassall, 1898 oilasiga Hasstilesia Orloff, Erschow et Badanin avlodiga kirib, qo'ylarning ingichka ichagida parazitlik qiluvchi, uzunligi 0,9-1,12 mm ga, eni 0,50-0,70 mm ga teng juda mayda oval tuzilishga ega gelmint hisoblanadi.

Bulardan tashqari Fasciolata kenja turkimining Dicrocoeliidae Odhner, 1911 oilasiga kiruvchi Eurytrema Loos, 1907 avlodining Eurytrema pancreaticum (Janson, 1889) va Eurytrema caelomaticum (Giardi et Billet, 1892) trematodalarini O'zbekiston qoramollarining oshqozon osti bezida parazitlik qilishi aniqlangan. Jigar trematodalaridan esa Fasciola hepatica L., 1758, Fasciola gigantica (Cobbold, 1856), Dicrocoelium lanceatum Stiles et Hassal, 1896, Orientabilhartia turcestanica (Skyjabini, 1913) larning uchrashi ma'lum.

**Tadqiqot natijalari:** 2016 – yilning 1-5 noyabr kunlarida Toshkent viloyatida go'sht va yog' maxsuloti olish uchun so'yilgan 2- 4 yoshli 16 bosh qo'ylarning ikki boshining kata qornida 218 nusxa Calicophoron calicophorum trematodasi topildi. Ularning 196 nusxasini voyaga yetgan, tana uzunligi 12-17 mm bo'lib, 22 nusxasini voyaga yetmagan, tana uzunligi 7-8 mm ekanligi aniqlandi. Ushbu olingan ma'lumot bo'yicha qo'ylarni o'rtacha kalikoforoz qo'zg'atuvchisi bilan zarazlanish darajasi 5,5 foizni tashkil qildi. Ushbu kalikoforozga chalingan qo'y Ohangaron tumaniga tegishli edi.

2017-yilning fevral - mart oylarida Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanining sug'oriladigan O'zbekiston hududida Qora suv qanali bo'yida saqlanadigan 28 bosh 2-3 yoshli qo'ylarning tezak namunalari ketma- ket yuvish usulida tekshirilganda ularning 2 boshining tezak namunasida 2-8 nusxadan paramfistomat tuxumlari topildi. Bunday tuxumlar kulrang tusda va biroz mayda hajmda bo'lishi bilan tilla ya'ni sariq tusdagi, biroz yirik fassiola (Fasciola hepatica) tuxumlarida keskin ajralib turadi. Fassiola tuxumlari 5 nusxadan 25 nusxagacha 25 bosh qo'ying tezak namunalari topildi. jami 25 bosh qo'ying tezak namunalari 452 nusxa F. hepatica tuxumlari borligi aniqlandi.

Gelmintooskopik usulda tekshirilgan 28 bosh qo'ylarning 12 boshining tezak namunalari bir nusxadan o'n bir nusxagacha, jami 77 nusxa dikroselioz qo'zg'atuvchisi – Dicrocoelium lanceatum ning tuxumlari topildi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra ushbu hududda koproduagnostika usuli yordamida tekshirilgan 28 bosh qo'ylarni 90,7 foizi fassiolyozga, 43,0 foizi dikroseliozga, 7,1 foizi paramfistomatozga chalinganligi aniqlandi. Qo'ylarning tezak namunalari topilgan fassiola tuxumlari bo'yicha invaziya intensivligi o'rtacha 18 nusxa tuxumlarga, D.lanceatum tuxumlari bo'yicha invaziya intensivlik o'rtacha 6,4 nusxa tuxumlarga, paramfistomatlarining tuxumlari bo'yicha invaziya intensivlik o'rtacha 5 nusxa tuxumlarga to'g'ri keldi. Shularga ko'ra Yuqori Chirchiq tumanining sug'oriladigan biosenozlarida saqlanadigan qo'ylarni F.hepatica qo'zg'atadigan fassiolyozga kuchli darajada, dikroseliozga o'rta darajada va paramfistomatozga past darajada chalinganligi qayd qilindi. Tekshirilgan qo'ylarning tezak namunalari euritrematoz va xasstilezioz qo'zg'atuvchilarining tuxumlari topilmadi.

**Xulosa:** Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida tekshirish o'tkazilgan sug'oriladigan hududida qo'ylar orasida fassiolyozni yuqori darajada, dikroseliozni o'rta darajada, paramfistomatozni esa past darajada uchirishi kuzatildi. So'ngi kasallik Ohangaron tumanida qayd qilindi.

## ГҶШТХҲРЛАРДА ҚУТУРИШ КАСАЛЛИГИНИНГ КЛИНИК ДИАГНОСТИКАСИ

**Ў.Рахмонов – магистрант, М.Мақсудов – талаба,  
М.Н.Маматова – илмий раҳбар, доцент**

Қутуриш - г и д р о ф о б и я - нейратроп вирус кўзгатадиган ўта хавфли даволанмайдиган инфекцион касаллик бўлиб, оғир энцефалит билан тавсифланади.

Қутуриш касаллиги гўштхўрлар хайвонларда ўзига хос аниқ клиник белгилар билан намоён бўлганлиги сабабли клиник диагностикада аҳамиятга эгадир.

Қутуришга барча иссиқ қонли хайвонлар, паррандалар ва одамлар мойилдир. Қутуришга мойилликнинг 4 хил гуруҳи бор:

ў т а ю қ о р и - тулки, каламуш, бўри, шоғол ва каёт;

ю қ о р и - оғмахон, сассиқ қузан, мангуст, ёнут, мушук, денгиз чўчқаси, кўршапалак ва куён;

ў р т а - ит, кўй, эчки, от, одам ва маймун;

п а с т - паррандалар.

Қутуришга барча совуққонлилар мойил эмас. Улар ҳаттоки сунъий йўл билан зарарлантирилганида ҳам касалланишмайди. А.И.Саватаев, L.T.Webster, В.Д.Соловьёв,